

**ABDULLA QODIRIYNING "O‘TKAN KUNLAR" ROMANIDA  
MADANIYAT TILI**

*Jumayeva Diyona Bahodir qizi*

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

*Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi*

**ANNOTATSIYA**

Maqolada o‘zbek adabiyotining serqirra adibi, adabiyotimiz tarixida o‘z asarlari bilan o‘chmas iz qoldirgan benazir poetik tafakkur egasi Abdulla Qodiriyning "O‘tkan kunlar" romanida qahramonlar suhbatlari va ichki hissiyotlarini madaniy til vositasida tasvirlash mahorati haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Abdulla Qodiriy, "O‘tkan kunlar" , madaniyat tili, Qulimiz, dardmandlik, bir ish, noma’qullik, yulishish, oradan ko‘tar, Alisher Navoiy.

**АННОТАЦИЯ**

В статье говорится об мастерстве описания разговоров и внутренних переживаний героев романа «Прошлые дни» Абдуллы Кадыри, великого писателя узбекской литературы, оставившего неизгладимый след в истории нашей литературы своими немногочисленными произведениями. , используя культурный язык.

**Ключевые слова:** Абдулла Кадыри, «Ушедшие дни», язык культуры, наш раб, боль, одна работа, несправедливость, компромисс, подъем с середины, АлишерНавои.

**ABSTRACT**

The article talks about the skill of describing the conversations and inner feelings of the characters in the novel "The Past Days" by Abdulla Qadiri, the great writer of Uzbek literature, who left an indelible mark in the history of our literature with his few works, using cultural language.

**Key words:** Abdulla Qadiri, "Gone days", language of culture, our slave, pain, one job, injustice, compromise, rise from the middle, Alisher Navoi.

XX asr yangi o‘zbek adabiyotining serqirra adibi, o‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy o‘z asarlarida xususan, Otabek va Kumushning sof sevgisi kuylangan "O‘tkan kunlar" romanida madaniy til vositalaridan keng foydalangan.

**Madaniyat tili** og‘zaki va yozma adabiy til me‘yorlarini egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati. O‘tgan asrning 20-yillaridan so‘ng o‘zbek tilining Nutq madaniyati xalq tiliga yaqinlashtirilgan milliy adabiy til me‘yorlariga asoslandi. Bu me‘yorlarni shakllantirishda Abdulla Qodiriy ham munosib

hissa qo‘shdi. Adib mashhur "O‘tkan kunlar" romanida ota-bola, er-xotin, do‘st-yor munosabatlari orqali haqiqiy o‘zbeklarga xos madaniyatni ifodalay olgan.

**"Hasanali chiqdi. Rahmat Otabek bilan yana bir qaytib sog‘liq so‘rashgandan keyin so‘radi:**

**-- Bu kishi kimingiz bo‘ladir, bek aka?**

**Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so‘ngra javob berdi:**

**- Qulimiz<sup>1</sup>."**

Ushbu parchada qatnashgan "Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so‘ngra javob berdi" jumlasini kitobxon e‘tiborini tortmasdan qolmaydi. Otabeklar oilasining chin bir a‘zosi bo‘lgan Hasanalining ko‘nglini ranjitmaslik uchun muallif Otabek tilidan yuqoridagi gaplarni keltirib uning tarbiyasi va madaniyatini ko‘rsatib beradi.

**- O‘zingizga ma‘lumki, - dedi tuzuklanib Hasanali, - Marg‘ilon kelganimizga yigirma besh kun, bir oylar, chamasi, fursat o‘tdi. Shundan beri Otabek dardmand.**

**Ziyo aka ajablangan edi:**

**- Qanday dardmandlik, Otabek sog‘-ku?**

**- To‘g‘ri aytasiz, - dedi Hasanali, - ammo men ham uning dardiga bir necha kunlab tushunmay yurgan edim.**

**- Xo‘sh, dardi?**

**- Muhabbat<sup>2</sup>.**

Hasanali xo‘jayinining Qutidor qizi Kumushga bo‘lgan muhabbatini shundoqqina aytib qo‘ya qolishni xohlamaydi. Aksincha, Otabekning muhabbat dardiga duchor bo‘lganligini Ziyo shohichiga ajoyib so‘z o‘yini shaklida bayon etadi. Ya‘ni u bu ishqni dardmandlik deya nomlaydi.

Hasanali Otabekning dardmandligini bilgan Ziyo shohichi Bekning dardiga davo topish uchun Mirzakarim Qutidornikiga boradi. Kelishining sababi nimadan ekanligini Ziyo shohichi quyidagicha bildirishni boshlaydi:

**- Bu kungacha Otabek salomat, - dedi Ziyo aka salmoqlab, - ammo bekning bundan keyingi sog‘lig‘i sizning qo‘lingizga qolg‘anga o‘xshaydir<sup>3</sup>.**

Gapning bu tarzda boshlanishi Qutidorni ham ajablantirib qo‘yadi.

**- O‘g‘lim, Hali sen eshitdingmi, yo‘qmi haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘yidiq<sup>4</sup>...**

<sup>1</sup> A.Qodiriy "O‘tkan kunlar". -T.:2019; 396 bet, 8-bet

<sup>2</sup> A.Qodiriy "O‘tkan kunlar". -T.:2019; 396 bet, 40-bet

<sup>3</sup> A.Qodiriy "O‘tkan kunlar". -T.:2019; 396 bet, 28-bet

<sup>4</sup> A.Qodiriy "O‘tkan kunlar". -T.:2019; 396 bet, 83-bet

Ushbu jumlada romandagi asosiy obrazlardan biri bo‘lgan Yusufbek Hoji timsolida muallifning so‘z qo‘llash mahorati yaqqol namoyon bo‘ladi. "Bir ish"ning nima ekanligini bilsada Otabek o‘zi otasi Yusufbek Hojiga quyidagicha javob qaytaradi:

- *Aqllik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilg‘an ishlari albatta noma‘qul bo‘lmas*<sup>5</sup>.

Bu tarzda berilgan javobdan so‘ng Hoji yerga qaragancha o‘g‘liga nima deyishni bilmay qoladi.

- *Oyim aytgandek, - dedi kulib Kumush, siz bilan yulishqali keldim*<sup>6</sup>.

Ikki kundoshning yulishish haqidagi kinoyalarini muallif Kumushning kulishi ostiga yashiradi.

*"Halig‘i Otabek qizg‘a uylanib qo‘yg‘ach, bizning Homid tikanga ag‘nab, oradan Otabek bilan Mirzakarim akani ko‘tarish fikriga tushkan va bo‘lmag‘an chaqimchiliklar bilan ularni dor ostig‘acha tortishg‘a muvaffaq bo‘lg‘an"*<sup>7</sup>.

Ushbu parchada muallif adabiy til vositalaridan biri bo‘lgan o‘xshatish va evfimizmlardan ham keng foydalangan. O‘ldirish so‘zini shunchaki qo‘llab qo‘ya qolmasdan "oradan ko‘tarish" evfemizmini qo‘llab asarning jozibasini yanada oshirgan.

- *Sizmi? deb kulimsiradi. - Otam bo‘lmasangiz ham meni otaliq muhabbati bilan suygan sodiq va mehribon bir kishimsiz - ya‘ni ma‘naviy otam*<sup>8</sup>.

Otabekning Hasanali tomonidan berilgan " -- *Aytingchi, men siz uchun kimingiz?*" savoliga javobi adib obrazining ma‘naviy yetukligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Yuqorida keltirilgan misoldagi kabi Otabekning Hasanaliga bo‘lgan hurmati, uni o‘z otasidek e‘zozlashi ushbu parchada yanada oydinlashadi.

*"Qudamiz Mirzakarim Qutidor g‘a va qudachamiz xoning‘a yetub ma‘lum bo‘lg‘aykim, bizlar Munda sog‘-salomatdirmiz va ul jonibdagi siz hurmatlik va izzatliklarni parvardigori olamdin sihatlaringizni saloti xamsa oldida so‘rab turmoqdamiz."*<sup>9</sup>

Yuqorida Otabekning otasi Yusufbek Hojining Qutidor va Oftoboyimga yo‘llagan maktubidan parcha berilgan. O‘tgan asrlardagi bunday munosabatlardan bizning davrimizdagi ko‘plab oilalar o‘rnak olsa arziydi.

XV asrdayoq o‘zbek adabiy tilining Nutq madaniyati va uning o‘ziga xos me‘yorlari bo‘lgan. Alisher Navoiy o‘zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o‘z davri nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo‘shgan bo‘lsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va Abdulla Qodiriyning asarlari tilida ham o‘sha davr tili va nutq madaniyati ma‘lum

<sup>5</sup> A.Qodiriy "O‘tkan kunlar". -T.:2019; 396 bet, 83-bet

<sup>6</sup> A.Qodiriy "O‘tkan kunlar". -T.:2019; 396 bet,137 -bet

<sup>7</sup> A.Qodiriy "O‘tkan kunlar". -T.:2019; 396 bet,137 -bet

<sup>8</sup> A.Qodiriy "O‘tkan kunlar". -T.:2019; 396 bet,18 -bet

<sup>9</sup>A.Qodiriy "O‘tkan kunlar". -T.:2019; 396 bet, 86-bet

darajada aks etgan. "Yaxshi soʻz — jon oʻzigʻi", "Bugʻdoy noning boʻlmasa ham, bugʻdoy soʻzing boʻlsin", "Oʻynab gapirsang ham oʻylab gapir", "Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak — nodonning ishi" kabi maqol va hikmatli soʻzlarning paydo boʻlishi ham oʻzbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan eʼtibor kuchli boʻlganidan darak beradi.

#### Adabiyotlar:

1. A.Qodiriy "Oʻtkan kunlar". -T.:2019;
2. Alisher Navoiy "Mukammal asarlar toʻplami" 20 Tom. T. Fan. 1997
3. Omomturdiyev.A.J. "Oʻzbek tilining qisqa evfemik lugʻati" Toshkent Oʻzbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi.Fan nashriyoti.2006. 134 bet.
4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati: 80 000 ortiq soʻz va soʻz birikmasi. // A. Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent. "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.